



## YAPONIYA TASHQI SIYOSATIDA YANGI BOSQICH : “ OZOD VA OCHIQ HIND-TINCH OKEANI STRATEGIYASI ”

**Axmadjonova Mardonaxon**

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Xalqaro munosabatlar yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqola “Ozod va ochiq Hind- Tinch okeani strategiyasi” (FOIP) ning Yaponiya tashqi siyosatiga ta’siri va undagi o’rnini, strategiya doirasidagi hamkor davlatlar bilan o’zaro aloqalarini qamrab oladi. Mintaqadagi geosiyosiy manfaatlari va qarama qarshiliklarda Yaponiya davlatining istqibollari va imkoniyatlarini tahlil qiladi. FOIP doirasidagi tashabbuslar va amalgalashirilayotgan hamkorlik sohalarida mavjud xavf xatarlarni tadqiq qiladi.

**Kalit so’zlar:** geostrategik omillar , geosiyosiy raqobat, mintaqaviy xavfsizlik, strategik sheriklik , mintaqaviy diplomatiya , Yaponiya–ASEAN munosabatlari , dengiz xavfsizligi.

### A NEW PHASE IN JAPANESE FOREIGN POLICY : "FREE AND OPEN INDO-PACIFIC STRATEGY "

**Mardonakhon Akhmadjonova**

Tashkent State University of Oriental Studies

2nd-Year Student of International Relations

**Abstract:** This article covers the impact and position of the free and open Indo- Pacific strategy (FOIP) on Japanese foreign policy, its interactions with partner nations within the strategy. Analyzes the aspirations and capabilities of the Japanese state in geopolitical interests and contradictions in the region. It conducts existing risk research in the areas of initiatives and ongoing cooperation within the FOIP framework.



**Keywords:** geostrategic factors, geopolitical competition, regional security, strategic partnership, regional diplomacy, Japan-ASEAN , Maritime security.

## **НОВЫЙ ЭТАП ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ЯПОНИИ: "СВОБОДНАЯ И ОТКРЫТАЯ ИНДО-ТИХООКЕАНСКАЯ СТРАТЕГИЯ"**

**Ахмаджонова Мардонахон**

Ташкентский государственный университет востоковедения

Курс международных отношений студент 2-го курса

**Аннотация:** В этой статье рассматривается влияние “стратегии свободного и открытого Индо - Тихоокеанского региона” (FoIP) на внешнюю политику Японии и ее место в ней, а также ее взаимодействие со странами-партнерами в рамках стратегии. Анализирует перспективы и возможности японского государства в geopolитических интересах и противоречиях в регионе. FoIP исследует существующие риски в рамках инициатив и реализуемых областей сотрудничества.

**Ключевые слова:** геостратегические факторы , геополитическая конкуренция, Региональная безопасность, стратегическое партнерство , региональная дипломатия , отношения Японии и АСЕАН, Морская безопасность.

### **KIRISH**

So'nggi o'n yil davomida Yaponiya faol va tashabbuskor tashqi siyosiy faoliyat olib bordi va xalqaro diplomatik aloqalar ko'larni sezilarli darajada kengaytirdi. Bu sa'y harakatlar natijasi o'laroq u xalqaro maydonda ko'ptomonlama va mintaqaviy munosabatlarni yaxshilashga aniq strategiyalar orqali barqaror ravishda ta'sir kuchini oshirishga erishdi. Faol mintaqaviy siyosat namunasi sifatida Sindzo Abe tomonidan “ Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani strategiyasi” uchun



tashabbus ko'rsatildi. Tashabbusdan bir necha yil o'tib u Yaponiya tashqi siyosatining asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qabul qilindi.

### TADQIQOTNING USULLARI

Yaponianing strategiya doirasida tashqi siyosatda olib borgan o'zgarishlari va aloqalarini tadqiq etish, strategik hamkorlar bilan manfaatlar mushtarakligi va mavjud qarama qarshiliklarni tahlil qilish va aniqlashdan iborat.

**Usullar:** maqolada tizimli tahlil, nazariy-metodologik, qiyosiy va statistik tahlil , siyosiy analitik va kontent tahlili kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, ushbu jarayonida mavzuga doir ingliz tilidagi , rus tilidagi va yapon tilidagi manbaalarga, hukumat rahbarlarining nutqlari va nizom , hujjat , shartnomalarga murojaat qilindi.

### NATIJALAR

**Natijalar va mulohaza :** Har bir davlat o'z tashqi siyosiy faoliyati davomida ma'lum bir bosqichlar va jarayonlarni boshdan kechiradi. Ushbu jarayon va bosqichlar bir- biridan ustuvor strategik yo'nalishlari , hamkorlar va ittifoqdoshlari tarkibi ular bilan manfaatlar o'xshashligi kabi jihatlarga ko'ra farqlanadi. Bu jihatlar ma'lum darajada rivojlanish , tinchlikni saqlash va inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalarda asos sifatida xizmat qiladi.

Yaponiya tashqi siyosatida mohiyatan yangi davrni boshlab bera olgan hodisalardan biri "Ozod va ochiq Hind-Tinch okeani strategiyasi" ning qabul qilinishi hisoblanadi. Yaponiya mintaqadagi hamda mintaqadan tashqaridagi davlatlarning Hind-Tinch okeani mintaqasiga ortib borayotgan qiziqishi va ma'suliyatini mammuniyat bilan qabul qilayotgan bir vaqtda, 2007-yil avgust oyida aynan Dehlida sobiq Bosh vazir Sindzo Abe "Ikki dengizning qo'shilishi" nomli nutqida Tinch okeani va Hind okeanini "erkinlik va farovonlik dengizlari" deb tavsiflab, mintaqada shakllanayotgan dinamikani yo'naltirib bergenligini alohida ta'kidlash o'ta muhimdir. U o'sha nutqida Tinch okeani va Hind okeanini "erkinlik va farovonlik dengizlari" deb atab, mintaqada yuzaga kelayotgan yangi geosiyosiy jarayonlarga e'tibor qaratgan edi.[1] Aynan shu nutq ushbu strategiya va Hind-Tinch



Okeani mintaqasi nomli geosiyosiy nazariya uchun amalda ta'mal toshi bo'lib xizmat qildi.

Sindzo Abe ma'muriyati davrida Yaponiya "tinchlikka faol hissa qo'shish" va "dunyoni keng qamrovli nuqtai nazardan ko'rvuchi diplomatiya" kabi tamoyillar asosida diplomatiyani kuchaytirishga intildi. Ayniqsa, ma'muriyat "erkin va ochiq" degan liberal prinsipni Hind-Tinch okeani nomli yangi shakllanayotgan geografik tushuncha bilan uyg'unlashtirgan diplomatik qarashni ishlab chiqdi hamda 2016-yilda "Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani" (FOIP) tashabbusini taqdim etdi. Keyingi Suga va Kishida ma'muriylari ham Tinch va Hind okeanlarini qamrab olgan mintaqada qoidalarga asoslangan tartibni qo'llab-quvvatlash uchun FOIP markazida bo'lган diplomatiyani davom ettirdilar.[2]

Sindzo Abe hukumati va undan keying hukumat davrlarda ham FOIP Yapon tashqi siyosatida asosiy yo'naliш bo'lib qolaverdi. 2019-yilda Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi MOFA tomonidan e'lon qilingan diplomatik ko'k kitobda keltirilishicha: "Yaponiya quyidagi yo'naliшlar bo'yicha tashqi siyosatini izchil kuchaytirishga intiladi:

1. Yaponiya-AQSh ittifoqini mustahkamlash va ittifoqdoshlar tarmog'ini kengaytirish;
2. Qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash;
3. Iqtisodiy diplomatiyani ilgari surish;
4. Global muammolarni hal etishga hissa qo'shish;
5. Yaqin Sharqda tinchlik va barqarorlikka hissa qo'shish;
6. Ozod va ochiq Hind-Tinch okeani konsepsiyasini ilgari surish."[3]

FOIP strategiyasi bo'yicha mintaqada amalga oshirilgan ilk va muhim hamkorlik yo'naliшlaridan biri 2018-yil 18-19-may kunlari bo'lib o'tgan Palm8 Tinch okeani yetakchilarining sakkizinch uchrashuvdir.

PALM8 yig'ilishida quyidagi to'rtta asosiy kun tartibi atrofida muhokamalar olib borildi:

- i) Qonun ustuvorligiga asoslangan dengiz tartibi va barqaror okeanlar;



- ii) ii) Barqaror va moslashuvchan rivojlanish;
- iii) Tinch okeani fuqarolari o'rtasida yaxshi aloqa o'rnatish;
- iv) Xalqaro maydonda hamkorlik.

Muhokamalar yakunida PALM 8 Yetakchilar Deklaratsiyasi qabul qilindi.

[4]

Ushbu uchrashuv natijasi o'laroq Yaponiya orollar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, inson resurslarni rivojlantirish, xalqaro almashinuvni amalgamoshirish, qatnashchilar orasida o'zaro dengizda qonun ustuvorligiga erishish, dengizda xavfsizlik salohiyatini oshirish va port, bandargohlar infratuzilmasini rivojlantirish kabi sohalarda hamkorlik uchun kelishib oldi

FOIP doirasida yanada rivojlangan hamkorlik aloqalaridan biriga Yaponiya va ASEAN munosabatlari misol bo'la oladi. 2020-yil 10-yanvarda Yaponiya Bosh vaziri Motega Toshimitsu ta'kidlab o'tganidek ASEAN va Yaponiya manfaatlari va strategik maqsadlari, tashqi siyosatidagi diplomatik munosabatlari o'zaro mos keladi. ASEAN tashkiloti "Hind-Tinch okeanlari bo'yicha ASEAN yondashuvi"ni qabul qildi va Yaponiya ushbu nuqtai nazarni qo'llab quvvatladi.

"Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida, men quyidagi uch yo'nalishda bиргалидаги гаракатларни тақлиф қилмоқчиман: "биргаликда инсонларни тарбиялаш," "биргаликда институтлар барпо етиш," ва "донишмандлігімизни жаңлаш." – деган Япония бос вазири Мотеги Тосимитсу о'з нутқида [5]

## XULOSA

Xulosa. Yaponiya Tashqi siyosatda xalqaro konsepsiya va strategik hamkorlikdan faol ravishda foydalanadi. Yaponiya geografik jihatdan to'rt tarafдан suv bilan o'ralgan mamlakat hisoblangani uchun dengiz xavfsizligi va dengizda qonun ustuvorligi masalalari muhim rol o'ynashi aniqlandi.

Mintaqaviy jihatdan Sharqiy Osiyoda joylashgan Yaponiya Sharqiy, Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan turli sohalarda integratsiyalashuvga va yuqori darajadagi hamkorlikka intilmoqda. Bunda tashqari "Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani strategiyasi" doirasida hamkor davlat va tashkilotlar bilan yaqin aloqalar olib bormoqda.



Mamlakat Tashqi siyosati bag'rikenglik va tinch yo'l bilan diplomatik aloqalar olib borishga asoslangan bo'lib , u amalda yaxshi natijalarga erishyotganligi ma'lum bo'ldi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Choudhury, S. R. Japan and its partners in the Indo-Pacific: Engagements and alignment //Area Studies, Politics & International Relations – Routledge India — 2023 – p2
2. Hidetaka Yoshimatsu. The Development of Japan's Indo-Pacific Strategy: SecurityConcerns and Instrumental Principles // Research article — 2024- p1
3. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Diplomatic Bluebook 2019 :  
[https://www.mofa.go.jp/policy/other/bluebook/2019/html/chapter1/c0102.html#sf0\\_1](https://www.mofa.go.jp/policy/other/bluebook/2019/html/chapter1/c0102.html#sf0_1)
4. Ministry of Foreign Affairs of Japan. The Eighth Pacific Islands Leaders Meeting PALM8 Overview of Results -  
[https://www.mofa.go.jp/a\\_o/ocn/page3e\\_000900.html](https://www.mofa.go.jp/a_o/ocn/page3e_000900.html)
5. Ministry of Foreign Affairs of Japan . Japan-ASEAN relations // ASEAN Policy Speech by Foreign Minister MOTEGI Toshimitsu  
[https://www.mofa.go.jp/s\\_sa/sea2/page3e\\_001148.html](https://www.mofa.go.jp/s_sa/sea2/page3e_001148.html)